



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA POLITEXNIKA  
INSTITUTI

---

RO'YXATGA OLINDI:

№ \_\_\_\_\_  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 yil

“TASDIQLAYMAN”  
Farg'ona politexnika instituti rektori

\_\_\_\_\_ O'R. Salomov  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 yil

**08.00.13. – «MENEJMENT» IXTISOSLIGI BO'YICHA  
TAYANCH DOKTORANTURA (Phd) VA MUSTAQIL  
IZLANUVCHILLIKKA KIRISH UCHUN  
MUTAXASISLIK FANIDAN IMTIHON  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Farg'ona – 2023

08.00.13 - “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihon Dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2017-yil 31-yanvardagi 195/6-son qarori bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017-yil 25-martda 2442-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan ishlab chiqildi.

Dastur va baholash mezoni “Menejment” kafedrasi yig‘ilishida muhokama etildi va tasdiqlandi. Bayon № 2, 30-sentabr, 2023-yil

Dastur Farg‘ona politexnika instituti ilmiy Kengashining 2023-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ – sonli majlisida muhokama etildi va tasdiqlandi.

**Dasturni tuzuvchilar:**

I.f.d., dots. Kambarov J.X. (FarPI)

I.f.d., dots. Kadirov A.M. (FarPI)

I.f.d., prof.v.b. Nosirov I.A. (FarPI)

I.f.n., prof.v.b. Ashurov M.S. (FarPI)

I.f.n., dots. Yormatov I.T. (FarPI)

I.f.f.d., dots. Yuldasheva N.A. (FarPI)

**Menejment kafedrasi mudiri:**

**A.Kadirov**

## KIRISH

Mamlakatimiz yildan-yilga rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli jahbalarida ahamiyatli yutuq va natijalarga erishib, jahon hamjamiyatida tobora yuksak mavqega ega bo‘lib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari tomonidan siyosiy soha hamda davlat va jamiyat qurilishi borasida belgilab berilgan strategik maqsad va unga bosqichma-bosqich erishish bo‘yicha aniq ishlab chiqilgan vazifalarning izchil amalga oshirilishi muvaffaqiyatlar asosi bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda olib borilgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, tarkibiy o‘zgarishlar tez orada o‘z natijalarini ko‘rsatdi. Jumladan, milliy xo‘jalik iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimdan meros bo‘lib qolgan bir tomonlamalik va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta‘minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari shakllantirilib, rivojlantirildi.

Ta‘kidlash lozimki, mamlakatimizda keng ko‘lamli amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz yildan-yilga rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli jahbalarida ahamiyatli yutuq va natijalarga erishib, jahon hamjamiyatida tobora yuksak mavqega ega bo‘lib bormoqda.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, har qanday islohot va o‘zgarishni barqaror iqtisodiyotsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Biz o‘tgan yil davomida bu borada keng ko‘lamli ishlarni boshladik. Lekin milliy iqtisodiyotimizni mustahkamlash, yurtimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun oldimizda hali ko‘plab vazifalar turibdi<sup>1</sup>.

Bu kabi vazifalarni zamонавиј bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlay oladigan, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlar orqali amalga oshira olamiz hamda yoshlarimizga munosib ta‘lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak.

Darhaqiqat, O‘zbekistonni yuqori darajadagi sanoatlashgan mamlakatga aylantirish, oliy ta‘lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta‘lim sifatini tubdan oshirish, fan, ta‘lim, ishlab chiqarish integratsiyasining izchil hamkorligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish sharoitida menejmentga tegishli masalalar doirasida ilmiy ishlarni olib borish hozirgi davrning dolzarb masalasidir.

Dasturda keltirilgan mavzu va savollar menejment fani, uning hozirgi holati va uning kelgusidagi rivojlanish tendentsiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Dasturda qo‘yilgan savollar va mavzular faqatgina ushbu sohadagi da‘vogarlarning umumiyl bilim darajasini aniqlash hamda sanoatni taraqqiy ettirish

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

balan bog'liq muammolarni hal qila olish qobiliyatini hamda bilimini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Dastur 08.00.13. - "Menejment" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Dastur 08.00.13. - "Menejment" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga da'vogarlarni bilimini sinash va baholash uchun mo'ljallangan

## **1- bo'lim. Menejment**

### **1.1. Menejmentning rivojlanish tarixi va hozirgi holati.**

Menejmentning tarixiy shart-sharoitlari. Hozirgi zamon o'zbek menejmentining xususiyatlari. Menejmentni paydo bo'lishi. Mashinali ishlab chiqarishni rivojlanishi. Bozor sub'ektlarining katta miqdorini vujudga kelishi, hajmini o'sishi va bozor aloqalarini kuchayishi. Boshqaruvga kasbiy yondashuv zarurligini asoslab beruvchi raqobatni o'sishi va bozor iqtisodiyotining barqarorligi. Yirik korporatsiyalarni paydo bo'lishi va shunga ko'ra faqat xodimlarning maxsus apparati bajarishi mumkin boshqaruv ishlari hajmi va murakkabligini ko'payishi. Mulkni aktsiyadorlar o'rtasida jamlanishi, buning natijasida aktsiyadorlik sarmoyasini boshqarishning yangi vazifalari. Tadbirkorlarni sanoat inqilobi davrida yaratilgan texnikaning afzalliklaridan foydalanishga harakatlari. Menejmentning ilmiy maktablari. Ilmiy boshqaruv maktabi. Boshqaruvning klassik yoki ma'muriy maktabi. Boshqaruvdag'i insoniy munosabatlar maktabi. Ahloqiy fanlar yoki bixevoiristik maktab. Boshqaruv fani maktabi yoki miqdoriy usul. Vaziyatli yondashuv. Tizimli yondashuv. Jarayonli yondoshuv. Mamlakat boshqaruvining rivojlanishi. Menejmentning xorijiy modeli. Menejmentning amerikacha modeli. Menejmentning yapon modeli. Menejmentning G'arbiy Yevropa modeli.

### **1.2. Menejmentning nazariy asoslari.**

Boshqaruv va menejment. Moliyaviy menejment. Innovatsion menejment. Savdo menejmenti. Boshqaruv (menejment)ning mohiyati va tizimi. Boshqaruv tizimining boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalari. To'g'ridan to'g'ri aloqa. Teskari aloqa. Menejment tizimining tuzilishi. Menejmentga nisbatan yondoshuvlar. Menejmentning ilmiy yondashuvlari va tamoyillari. Boshqaruv usullari. Ma'muriy yondashuv. Qayta ishlab chiqaruvchi yondashuv. Dinamik yondashuv. Integratsiyali yondashuv. Majmuaviy yondashuv. Marketingli yondashuv. Me'yoriy yondashuv. Ahloqiy yondashuv. Jarayonli yondashuv. Tizimli yondashuv. Vaziyatli yondashuv. Vazifaviy yondashuv. Menejment tamoyillari. Mehnat taqsimoti tamoyili. Vakolatlar va javobgarlik tamoyili. Intizom tamoyili. Yakka hukmronlik tamoyili. Harakatlar birligi tamoyili. SHaxsiy manfaatlarni bo'ysindirilishi tamoyili. Xodimlarni mukofatlash tamoyili. Markazlashtirish tamoyili. Qoyali zanjir tamoyili. Tartib tamoyili. Adolat tamoyili. Xodimlarning barqarorligi tamoyili. Tashabbus tamoyili. Korporativ ruh tamoyili.

Boshqaruv usullari. Boshqaruvning iqtisodiy usullari. Boshqaruvning ma'muriy usullari. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari.

### **1.3. Menejment texnologiyasi va boshqarish usullari.**

Mehnatni boshqarishning xarakteri. Iqtisodiy o'sishning har xil bosqichlarida mehnatni boshqarish turlari. F.Teyloring mehnatni boshqarish usullari. Pareto jadvali. Iskeva jadvali. Mehnatni texnokratik boshqarish. Sanoatda bandlikning umumiy tamoyillari va mehnat munosabatlarini o'rnatish. D.Makgregorning "X" va "Y" nazariyasi. Mehnatni innovatsion boshqarish. Mehnatni innovatsion boshqarishga o'tishning asosiy omillari va shartlari. Korporatsiyalarda "Sifat to'garaklari" ishchi guruhini tashkil etish.

Boshqaruv jarayoni. Boshqaruv vazifalari. Rejalashtirish. Maqsadlar. Tashkil qilish. Motivatsiya. A. Maslou bo'yicha ehtiyojlar ierarxiyasi. Muvofiqlashtirish. Boshqaruvda axborotlar va kommunikatsiyalar. Tashkilot va tashqi muhit o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Ishlab chiqarish va boshqaruv bosqichlari bo'yicha bo'linmalar ichidagi kommunikatsiyalar. SHaxslararo kommunikatsiyalar. Bo'linmalar o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Norasmiy kommunikatsiyalar. Kommunikatsion jarayon. Kommunikatsion tarmoqlarning namunalari. Boshqaruv qarorlari. Qarorni bajarilishini tashkil qilish. Qarorni bajarilishi ustidan nazorat qilish, faoliyat va qarorga tuzatishlar kiritish. Qarorni bajarish bo'yicha faoliyatni baholash.

### **1.4. Menejmenting tashkiliy tuzilishi**

Boshqarishning tashkiliy tuzilishi haqida tushuncha. Boshqarish tashkiliy tuzilishining turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari.

Chiziqli, tuzilma, funksional tuzilma, chiziqli-shtabli tuzilma, chiziqli-funksional tuzilma, matritsali tuzilma, xizmatli tuzilma, divizional tuzilma, loyihali tuzilma, brigadali tuzilma, maqsadli tuzilma tashkiliy iste'molchiga mo'ljallangan tashkiliy tuzilma, mintaqaviy tuzilmalar haqida. Byurokratik tashkiliy tuzilma. Maks Veberning byurokratiya haqidagi nazariyasi. Ratsional byurokratiya ta'riflari.

Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini loyihalashtirish. Rejalashtirish va tashkiliy loyihalashtirish. Tashkiliy loyihalashtirish bosqichlari. Byurokratiyaning salbiy ta'riflari. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida boshqarishning tashkiliy tuzilishini isloh qilish va rivojlantirish.

### **1.5. Menejment usullari**

Menejment usullari haqida tushuncha. Menejment usullarining turlari. Boshqarishning iqtisodiy usuli-bozor iqtisodi xo'jaligining samarali yuritish asoslari. Tashkiliy-farmoyish usuli, uning mohiyati va tavsifi. Tashkiliy-farmoyish usulining boshqaruvdagi roli. Tashkiliy-farmoyish usulining tabaqlanishi. Menejmentning sotsial-psixologik usullari, ularning turlari va mazmuni. Menejmentning axloqiy va ruhiy jihatlari.

Menejmentning huquqiy usullari. Bozor iqtisodining rivojlanishi va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda menejment kompleks usullarining ahamiyati.

Zamonaviy menejmentning huquqiy usullari. Menejment faoliyatining samaradorligini oshirishda menejment usullarining ahamiyati.

### **1.6. Menejment qarorlarini qabul qilish**

Menejment qarorlarining mohiyati va xususiyatlari. Menejment qarorlarining turlari. Menejment qarorlarini qabul qilish bosqichlari. Menejment qarorlariga qo‘yiladigan talablar.

Menejment qarorlarini optimallashtirish usullari. Optimal boshqarish va bajarish nazoratini tashkil etishda menejerning roli.

Qaror qabul qilish axborot texnologiyalari. Qaror qabul qilishni qo‘llab quvvatlashning axborot texnologiyasi interatsion jarayon sifatida. Qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash axborot texnologiyalarining asosiy komponentlari.

### **1.7. Menejer faoliyatini tashkil etish**

Menejment tizimida menejer. Bozor sharoitida kadrlar siyosati. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish tamoyillari. Menejment mehnatining mazmuni, xarakteri va xususiyati. Zamonaviy menejer liderning kasb-malaka modeli. Ishlab chiqarishning turli sharoitlarida menejerning ish uslubi. Boshqarish psixologiyasi. Yapon va Amerika usullari. Zamonaviy bosqichda menejer etikasi va menejer madaniyati. Menejerlarni tanlash, baholash va attestatsiyadan o‘tkazish yo‘llari. Menejerlar faoliyatini baholashda reyting tizimi. O‘zbekistonda menejerlarni tayyorlash va o‘qitish usullari.

### **1.8. Menejment tizimida tadbirkorlik va biznes**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes tushunchalari. Korxona-bozor iqtisodiyoti tizimi sifatida. Iqtisodiyotning boshqarish tizimi va tadbirkorlik. Menejment tizimi va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari.

Tadbirkorlik turlari. Biznes-reja, uning mohiyati va tuzilishi.

Biznes-rejaning moxiyati va maksadi. Bozor sharoitida korxonalarda biznes rejaning moxiyati. Biznes-rejani tayyorlash va undan foydalanish. Biznes-rejaning tuzilishi: ishlab chiqarish, marketing, menejment, tavakkalchilik turlari, moliyaviy reja va boshqalar. Biznes-rejaning yakunlovchi bo‘limi.

Biznes reja tuzishda qo‘llaniladigan hujjatlarning turlari. Rezyume, mahsulot yakka xizmat turlari, tovar yetkazadigan bozor, marketing starategiyasi, ishlab chiqarish dasturi, korxonaning tashkiliy-rejavli shakli, moliyaviy reja. Biznes-rejani bajarilishi ustidan nazorat.

### **1.9. Personalni boshqarish**

Korxona va tashkilotlarni shakllantirishda inson omili. "Personal" tushunchasining mazmuni. Personalni boshqarish tizimlari. Inson resurslarini boshqarish funktsiyasining rivojlanishi. Personalni boshqarish tamoyillari va usullari.

Kadrlarni rejalashtirish mohiyati, maqsad va vazifalari. Korxona va tashkilotlardagi xizmat martabasini boshqarish. Martaba bosqichlari. Xizmat

martabasini boshqarish. Korxona va tashkilotlarda personal xulq-atvorini boshqarish.

Kadrlarga oid yangiliklarning mohiyati. Kadrlar ishida yangiliklarni sabab jihatdan ta'minlash. Personal boshqaruvida mehnat munosabatlari etikasi. Mehnat munosabatlarini tashkil etishda shaxslararo munosabatlar. Salomlashish, taqdim qilish va ishbilarmon kishining tashqi qiyofasi. Ishga oid suhbat yuritish va telefonda gaplashish odobi. Tanqid qilish va tanqidni qabul qilish qoidalari. Notiqlik san'ati asoslari.

### **1.10. Ijtimoiy menejment**

Bozor sharoitida ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy dastur va uning menejmentdagi o'rni. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Mehnat bozori. Ijtimoiy boshqaruv ob'ekti. Jamoaning ijtimoiy rivojlanishi. Inson xulqi omillari tizimi. Guruhlar va ularning ahamiyatlari. Xotorn tajribalari. Menejment nazariyasiga Xotorn tajribasi ta'siri. Ijtimoiy tadqiqotlar natijalarining menejmentda qo'llanilishi. Menejmentda inson omili. hozirgi sharoitda ijtimoiy muammolarni hal etishning xorijiy tajribalari.

### **1.11. Menejment samaradorligi**

Boshqarish samaradorligi-iqtisodiy kategoriya sifatida. Boshqarish samaradorligini oshirish-bozor iqtisodiyotining muhim sharti.

Iqtisodiy va ijtimoiy boshqaruv samaradorligi tushunchalari. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari.

Boshqaruv samaradorligini oshirish omillari va rezervlari. Boshqaruv samaradorligini baholash usullari. Boshqaruv samaradorligini oshirish loyihalarini iqtisodiy asoslash.

## **2- bo'lim. Strategik menejment**

### **2.1. Strategiyani boshqarish jarayoni**

Strategiya tushunchasi, uning mazmuni. Strategiyaning rejadan farqi. Kompaniyani boshqarish vazifalari, ularning asosiy turlari.

Kompaniya strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha menejerlarning vazifalari. Kompaniya missiyasi va strategik qarashlarini belgilash. Kompaniya strategiyasining asosiy savollari. Strategik boshqarish maqsadi. Maqsadlarning turlari: qisqa muddatli, uzoq muddatli, moliyaviy, strategik. Strategiyani belgilashga ta'sir etuvchi omillar: ichki omillar, tashqi omillar.

Strategiyaga aniqliklar, o'zgartirishlar kiritish. Strategiyani baholash uchun qo'yiladigan savollar. Strategiyani amalga oshirish bo'yicha ma'muriyatning vazifalari. Strategik boshqarishning besh vazifasi. Strategiyani amalga oshirishda ijrochi direktorning o'rni. Kompaniya strategiyasini belgilashda prezidentning o'rni va vazifalari. Vitse-prezidentlarning vazifalari. Turli darajadagi menejerlar va ularning vazifalari. Rejalashtirish bo'limi va uning vazifalari.

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish sharoitlarida strategik menejmentni rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

## **2.2. Diversifikatsyaning korporativ strategiyalari**

Kompaniyaning rivojlanish bosqichlari. Boshlang‘ich bosqich belgilari. Ixtisoslashuvi. Geografik ekspansiya bosqichi. Kompaniyani yangi tarmoqqa diversiya qilish. Mahalliy bozordan xududiy-milliy va xalqaro bozorlarga chiqish. Tor ixtisoslashish va uning qulayliklari. Tor ixtisoslashishning kamchiliklari va xatarli jihatlari. Diversiyalanishga undovchi omillar. Kompaniyaning o‘sish va rivojlanish uch bosqichi.

Diversiyalanishni qo‘llashdan tub maqsad. Diversiyalanish uchun tarmoq tanlash mezonlari. Jozibadorlik mezoni. Kirim xarajatlari mezoni. Qo‘sishimcha manfaatlar mezoni. Diversiyalash yo‘llari. Ichki kapitallar bozori orqali. Funktsiyalar yoki resurslarni taqsimlash orqali. Vertikal integratsiya usuli. Diversiyalash yo‘llarining ijobiy va salbiy tomonlari.

## **2.3. Tarmoq jozibadorligini aniqlash va korporativ strategiyani ishlab chiqish**

O‘rta korxonalar evolyutsiyasi matritsasi ahamiyati. Diversiyalangan kompaniya strategiyasini baholash. Tarmoq jozibadorligini baholashning uch yo‘nalishi. Diversiyalangan kompaniyani tasniflash. Strategik moslik tahlili. Firmalarni investitsiya qobiliyatiga ko‘ra tabaqa lashtirish. Diversiyalangan korporatsiya strategiyasini aniqlash. Korporatsiya strategiyasini boholash bosqichlari. Korporativ strategiyani ishlab chiqish. Ishchanlik faolligi mezonlari.

Tarmoq jozibadorligini baholash yo‘nalishlari. Xo‘jalik bo‘linmalarining kompaniya biznesiga mos kelish darajasi. Kompaniya portfelining korxonalar, tarmoqlar bo‘yicha tahlili. Tahlil natijalariga ko‘ra tashkiliy xulosalar yasash. Kompaniya xo‘jalik portfelinini qayta ko‘rib chiqish. Biznes sohasiga kirishning strategiyasi. Xarid qilish. Yangi ichki korxona. Hamkorlikdagi tadbirkorlik. Strategiyani tanlashga bog‘liq omillar. Kompaniyaning bozordan ketish strategiyasini tanlash.

## **2.4. Strategiya yaratishning vazifalari.**

Korxona faoliyati yo‘nalishlarini belgilash omillari. Kompaniya missiyasi, strategik ko‘ra bilish, faoliyat yo‘nalishini tanlash o‘rtasidagi bog‘liqlik. Missiyani vazifalarga aylantirish. Strategik boshqarish tamoyillari. Strategiyaning tashkiliy darajalari. Korporativ strategiya.

Ishbop strategiya. Funktsional strategiya. Amaliy strategiya. Strategiya turlarining o‘zaro bog‘liqligi. Strategiyani ishlab chiqishga yondoshuv turlari. Bosh strategik yondoshuv. Vakolatlarni boshqalarga o‘tkazish. Birgalikda kolloboratsion yondoshuv. Tashabbuskor yondoshuv. Strategiya yaratishda missiya, maqsadlar,

strategiyalar birligi. G'olib strategiya mezonlari. Muvofiq kelish darajasi. Raqobat kurashida ustunlik.

### **2.5. Tarmoqdagi umumiylar vaziyat va undagi raqobatning tahlili.**

Tarmoqlar va ularning iqtisodiy tavsiflari. Tarmoqdagi raqobat va rivojlanish istiqbollari. Texnologik taraqqiyot sur'atlari. Tarmoq bozorining hajmi. Raqobat miqyoslari. Bozorning o'sish sur'atlari. Raqobatchilar tarifi. Raqobatchilarning moliyaviy imkoniyatlari. Tarmoqdagi integratsion jarayon yo'nalishi. Texnologik o'zgarishlar. Raqobatchi beshta kuch modeli. Raqobatchilar strategiyasini aniqlash. Raqiblarning navbatdagi qadamini oldindan ko'ra bilish. Raqiblarning maqsadlari va strategiyalarini turkumlash. Muvaffaqiyatning kalit omillari. Tarmoqdagi vaziyatni umumiylarini baholash.

### **2.6. Kompaniya ahvolining tahlili.**

Kompaniya ahvolini tahlil qilish uslubiyoti. Tahlil uchun qo'yiladigan savollar. Tahlil vositalari: SWOT – tahlil, qadriyatlar zanjiri tahlili, xarajatlar tahlili, raqobatbardoshlik bahosi. SWOT- kuch, zaiflik, imkoniyatlar, taxdid so'zlarining yig'indisi. Strategiyani amalga oshirish tahlili. Tahlil qilinadigan asosiy ko'rsatkichlar. Kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari. Kuchli va zaiflik. ularning mazmuni va ko'rsatkichlari. Kuch va zaiflikning umumiylarini ifodalash. Korxona xarajatlar raqobatbardoshligini baholash. Qadriyatlar zanjiri. Asosiy faoliyatdagi qadriyatlar zanjiri. Yordamchi faoliyatdagi qadriyatlar zanjiri. Muvaffaqiyatning kalit omillari. Muvaffaqiyatning kalit omillari ro'yxatini tuzish tartibi. Muammolarni aniqlash va ifodalash.

### **2.7. Strategiya va raqobatchilik ustunligi.**

Kompaniyaning raqobat strategiyasini belgilovchi omillar. Raqobat strategiyasining boshqa strategiyalar bilan bog'liqligi. Raqobat kurashiga yondoshuvlar. Xarajatlar bo'yicha ilg'orlik strategiyasi. Keng tabaqlashtirish strategiyasi. Optimal xarajatlar strategiyasi. Fokuslanish strategiyasi. Ifodalangan strategiya. Raqobat ustunligiga erishish yo'llari. Hujumkor strategiya. Hujumkor strategiyadan asosiy turlari. Raqobat ustunligini himoya qilish yo'llari. Mudofaa strategiyalarining turlari. Vertikal integratsiya. Integratsiya yo'nalishini tanlash. "Qaldirg'och" korxonaning yutuqlari va muammolari. Qaldirg'orlikda muvaffaqiyatga erishish shartlari.

### **2.8. Diversifikatsiyaning korporativ strategiyalari.**

Diversifikatsiyaning maqsadi. 2+2=5 samarasi. Diversifikatsiya uchun tarmoq tanlash mezonlari. Jozibadorlik mezonlari. Yangi tarmoqqa kirish strategiyalari. "Yutib yuborish" strategiyasi. Yangi kompaniya tuzish strategiyasi. Qo'shma korxona tuzish strategiyasi. Diversifikatsiyalashtirilgan kompaniya faoliyatini baholash. Ishbop faollik portfeli matritsasi. Portfelning hozirgi va kelajakdagi holati matritsasi. Strategik moslik tahlili

## **2.9. Marketing strategiyasini mavjud vaziyatga moslashtirish.**

Firma strategiyasini mavjud sharoitga moslashtirish. Yangi tarmoqlarda raqobat strategiyasi. Yetuklik bosqichida bo‘lgan tarmoqlarda raqobat strategiyasi. Depsinayotgan yoki tushkunlik xolatidagi korxonalar uchun strategiya. Tarqoq tarmoqlarda raqobat strategiyasi. Xalqaro bozorlarda raqobat strategiyasi. Ikkinchi darajali urinda bo‘lgan firmalar strategiyasi. Muvaffaqiyatli ishbop strategiya ishlab chiqish uchun tavsiyalar.

## **2.10. Diversifikatsiyalashning korporativ strategiyalari**

Korporatsiyaning o‘sishi va rivojlanishi. Yangi tarmoqlarga kirish strategiyasi. Turdosh tarmoqlarga diversiyalash strategiyasi. Noturdosh tarmoqlarga diversiyalash strategiyasi. Qisqartirish va tugatish strategiyasi. Qayta tarkiblashtirish strategiyasi. Ko‘pmillatli diversiyalash strategiyasi.

## **2.11. Diversifikatsiyalashgan kompaniyalarning strategik tahlili**

Kompaniyaning joriy strategiyasini belgilash. Matritsali taxlil yordamida diversiyalangan portfeli baxolash. O‘rta korxonalar evolyutsiyasining matritsasi. Diversiyalangan firmanın strategiyasini aniqlash. Korporativ strategiyani ishlab chiqish. Bozorga kirish va chiqish strategiyasi.

## **3- bo‘lim. Ishlab chiqarish menejmenti**

### **3.1. Tashkilotni boshqarish tizimining tuzilishi va mazmuni**

Boshqarishdagi mohiyati. Tashkilotni boshqarish tizimining tuzilishi. (TBT) Boshqaruv funksiyalarini mohiyati va tasnifi. Tashkilotni boshqarish tizimi sifat darajasini baholash. Tashkiliy tuzilmalar. Ishlab chiqarish tuzilmasi. Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish (makonda va vaqtda) Ishlab chiqarishni tashkil qilish namunalarining tavsifi.

### **3.2. Ishlab chiqarishni rejalashtirish**

Rejalashtirish mohiyati va tamoyillari. Rejalashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish. Strategik marketing rejalashtirish vositasi sifatida. Tashkilotning strategik rejalarini ishlab chiqish mazmuni va tartibi.

### **3.3. Ishlab chiqarish korxonalarida resurslarni boshqarish**

Resurs ta‘minoti strategiyasining asoslari. Tovar va ishlab chiqarishning resurs sig‘imi ko‘rsatkichlari tizimi. Tovarning resurs sig‘imi ko‘rsatkichlari. Tashkilot faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlari. Resurslardan foydalanish samaradorligi tahlili. Resurs ta‘minoti strategiyasini tanlash. Resurs ta‘minotini boshqarishda logistika funksiyalari.

### **3.4. Ishlab chiqarishni tashkil qilish asoslari**

Tashkiliy tuzilmalar.Ishlab chiqarish tuzilmasi.Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish ( makonda va vaqtda)Ishlab chiqarishni tashkil qilish namunalarining tavsifi.

### **3.5. Ishlab chiqarish korxonasining innovatsion faoliyati asoslari**

Yangilikalar va innovatsiyalarning moxiyati, tasnifi, va kodlashtirilishi. ITTKIni tashkil qilish. Ishlab chiqarishni tashkiliy –texnik darajasini tahlil qilish va bashoratlash. Yangiliklar va innovatsiyalar portfelin shakllantirish. Ishlab chiqarishning tashkiliy texnologik tayyorganligi.

### **3.6. Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifatni boshqarish.**

Maxsulot sifati ko'rsatkichlarining mohiyati va tizimi. Mahsulot sifatini boshqarishning maxalliy tajribasi. Maxsulot sifatini boshqarishning xorijiy tajribasi. Sifatni umumiy boshqarish kontseptsiyasining taxlili. Sifatni xalqaro tizimi: ISO 9000:2000 standartlari.

Maxsulot sifatini oshirish vositalari. Maxsulot sifatini nazorat qilishni tashkil qilish.

### **3.7. Ishlab chiqarish xarajatlarni boshqarish**

Ishlab chiqarish harajatlari mazmuni va mohiyati. Ishlab chiqarish harajatlarni guruhlash.Harajatlarni yuzaga kelish markazlari.

### **3.8. Ishlab chiqarish korxonalarida tovar iste'molchilarini va tashkilot xizmatlari servisi**

Servis xizmatining mohiyati va ko'rinishlari. Servis xizmatining kreteriyalari. Tovar iste'molchilarining servis xizmati sifatini baholash. O'zbekistonda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish.

### **3.9. Ishlab chiqarish korxonalarida jamoani shakllantirish va mehnat jarayonlarini tashkil qilish asoslari**

Ishga qobilyatli jamoani yaratishning ma'naviy psixologik jihatlarini o'rganish. Ijtimoiy boshqaruv vazifalari bajarilishining tahlili. Boshqaruvda qo'llanilayotgan ijtimoiy-psixologik metodlar tahlili. Ishlab chiqarish menejmenti kadrlar ta'minotining mazmuni va vazifalari. Boshqaruv tizimida kadrlar ta'minotining boshqarish. Boshqaruv tizimida kadrlar ta'minotini takomillashtirish.

### **3.10. Ishlab chiqarish korxonalarida mehnatni me'yorlashtirish va ish haqini tashkil qilish –psixologik asoslari.**

SHaxsning psixologik chizgisi.Inson motivlari.Mehnatni me'yorlashtirish asoslari.Ish haqini tashkil etish.Korxonalarda mehnatni ilmiy tashkil etish tushunchasi. Ish joylarini tashkil etish va xizmat ko'rsatish

### **3.11. Ishlab chiqarish menejmenti ijtimoiy masalalarining tahlili.**

Ijtimoiy boshqaruv vazifalari bajarilishining tahlili. Boshqaruvda qo'llanilayotgan ijtimoiy-psixologik metodlar tahlili. Mehnat jamoalarida ishning yaxshi borishi, bahs va nizolar chiqishi sabablarining tahlili.

#### **08.00.13. – “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga davogarlar bilimini baholash mezonlari**

08.00.13. – “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon ushbu fan sohasini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash va baholash maqsadida o‘tkaziladi.

Malakaviy imtihonda qatnashuvchining savollarga bergan yozma-og‘zaki javoblarni baholashda ularning menejment, strategik menejment, ishlab chiqarish menejmenti bilan bog‘liq masalalarni bilish qobiliyati aniqlanadi. Imtihon biletlaridagi har bir savolning javobi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Bayon qilingan materialning to‘liqligi va mazmunliligi.
2. Berilgan javobni imtihon biletidagi savolga mantiqan mosligi.
3. Berilgan javobning mantiqan ketma-ketligi va aniqligi.
4. Ilmiy-uslubiy tilda bayon qilinish darajasi, aniq ta‘riflar va atamalardan foydalanilishi.
5. Joriy qilishi ko‘zda tutilayotgan fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyot bilan bog‘lay olishi va ilmiy – amaliy ahamiyatini tushuna olish qobiliyatining shakllanganligi.
6. Xukumat qarorlari va ularni ijrosini ta‘minlashni tushunish darajasi.
7. Ilm-fan borasidagi davlat siyosati va huquqiy me‘yoriy hujjatlarni tushuna olish darajasini mavjudligi.
8. O‘z fikrini bayon qila olishi, mustaqil fikrlashi, bunda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondoshuvning mavjudligi..

Suhbat bo‘yicha yozma-og‘zaki javoblarni baholash unga qo‘yilgan yuqoridagi talablardan kelib chiqib, quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

•Kirish imtihonini topshirayotganlar berilgan variantdagi barcha savollarga yuqoridagi talablar asosida to‘liq javob bergani holda, unga fan uchun ajratilgan umumiy ballning 86 –100gacha miqdorda ball qo‘yiladi.

•agar imtihon topshiruvchining berilgan variantdagi barcha savollarga umumiy holda javob berishga harakat qilgan bo‘lsa, ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa unga umumiy ballning 71 -85 ball qo‘yiladi.

•berilgan variantdagi savollar mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bergan bo‘lsa, lekin ular bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni bermagan va bayonda mantiqiy yaxlitlikka erishmagan bo‘lsa, umumiy ballning 55 – 70 ball qo‘yiladi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi № PF-158 sonli Farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi. 2023 yil 12 sentabr 190-soni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-4947 sonli Farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori //Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 21 aprel, №79 (6773).
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - T.: O‘zbekiston, 2016. -56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi ma‘ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi yil arafasida – 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2016 yil 31 dekabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
10. Yo‘ldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. –T.: TDIU, 2013. - 433 b.
11. Yo‘ldoshev N.Q. Strategik menejment. –T.: TDIU, 2013. -230 b.
12. Yo‘ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xodjamuratova G.Yu. Menejment va marketing asoslari.– T.: TDIU, 2012.-258 b.
13. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.-335 b.
14. Ансофф И. Стратегический менеджмент. – СПб.: Питер, 2009.
15. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник для вузов. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2008.
16. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: Учебник для вузов по экон. спец. и направл. – Третье изд. – М.: Гардарика, 2008.
17. Герчикова И.Н. Менеджмент: Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.

18. Дафт Р. Менеджмент. 6-е изд./ Пер с англ. – СПб.: Питер,2007.
19. Кравченко А.И. История менеджмента: Учебное пособие для вузов. – 7-е изд. – М.: Академический Проект; Альма Матер, 2012.
20. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ. – М.: Дело, 2012.
21. Основы менеджмента: учебное пособие/ Л.В. Плахова, Т.М. Анурина, С.А. Легостаева и др. – М.: КНОРУС, 2007.
22. Семенов А.К., Набоков В.И. Основы менеджмента: – М.: ИТК «Дашков и К», 2010.
23. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент– М.: АО «Бизнес-школа «Интел-Синтез», 2008.
24. Гулин. В.Н. Информационный менеджмент: Учебный комплекс. - Минск: Соврем. шк., 2009.
25. Ламбен. Ж.Ж., Чумпилас Р., Шулинг И. Менеджмент, ориентирований на рынок. 2-е изд. /Пер. с англ. Под. ред. В.Б. Копчанова.- СПб.: Питер, 2008.
26. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник. 3- изд.- СПб Питер, 2009.
27. Ермаков В.П., Макиев З.Г. Менеджмент для студентов вузов. – Изд. 5-е. - Ростов н/Д: Феникс, 2008.
28. Коноплев С.П., Коноплева В.С. Менеджмент продаж: Учеб. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2009.
29. Гончаренко Л.П. Менеджмент инвестиций и инноваций: учебник. – М.: КНОРУС, 2009.
30. Пивоваров С.Э., Тарасевич Л.С. Международный менеджмент: Учебник. 4-е изд.- СПб.: Питер, 2008.
31. Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2009.
32. Стратегический менеджмент. / Под ред. А.Н. Петрова.- СПб.: Питер, 2010.



